Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320663

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Iste'molchilarning ishonchi iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Agar iste'molchilar iqtisodiy barqarorlik va o‘z moliyaviy kelajagidan ishonchli bo‘lsa, ular ko‘proq xarajat qilishga tayyor bo‘ladi. Bu esa talablarga ijobiy ta'sir qiladi va ishlab chiqarishni oshiradi. Aksincha, iqtisodiy noaniqliklar yoki inqirozlar davrida iste'molchilar o‘z xarajatlarini qisqartirishga majbur bo‘ladilar, bu esa iqtisodiy faollikning pasayishiga va o‘sishning sekinlashishiga olib keladi. Masalan, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz iste'molchilar ishonchining pasayishiga sabab bo‘ldi, bu esa butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy o‘sishni susaytirdi. Aksincha, iqtisodiy barqarorlik davrida, iste'molchilarning ishonchi oshishi, ularning xarid qilish qobiliyatini kuchaytiradi va iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi.

Davlat siyosati iste'molchilarning xulq-atvoriga ta'sir etishda muhim rol o‘ynaydi. Soliqlar, subsidiyalar, maoshlar va iqtisodiy stimullar iste'molchilarning xarid qilish odatlarini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, aholiga ma'lum mahsulotlar uchun subsidiyalar berish yoki soliq imtiyozlari taqdim etish iste'molchilarga o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun ko‘proq imkoniyat yaratadi. Bu esa iqtisodiy o‘sishga olib keladi.

Shuningdek, davlatning iqtisodiy siyosatida atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan choralar, masalan, "yashil" energiyaga bo‘lgan talabni oshirishga yordam beradi. Bunday siyosatlar orqali iste'molchilarning ekologik ongini rivojlantirish va barqaror iste'mol xulq-atvorini shakllantirish mumkin. Iste'molchilar yangi texnologiyalarni va ekologik toza mahsulotlarni afzal ko‘rganda, bu sohalarda innovatsiyalarni rivojlantirishga turtki bo‘ladi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, iste'molchilarning xarid qilish odatlari, shuningdek, iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Agar iste'molchilar o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun yangi mahsulotlarga yoki xizmatlarga talabni oshirsa, bu ishlab chiqaruvchilarni yangi texnologiyalarni joriy etishga, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga va innovatsiyalarni amalga oshirishga undaydi. Shuningdek, o‘zgaruvchan iste'molchilar xulq-atvori va ehtiyojlari bozorni diversifikatsiya qiladi, bu esa investitsiyalarning yangi sohalarga oqib kelishini ta'minlaydi. Innovatsiyalarni joriy etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalar esa iqtisodiy o‘sishni yanada kuchaytiradi. Iste'molchilarni yangi mahsulotlarga bo‘lgan talabini oshirish, bozorni kengaytirishga va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Smith, J. (2019). Economic Growth and Consumer Behavior: A Theoretical Perspective. Oxford University Press.

2. Lee, H., & Johnson, M. (2020). "The Role of Consumer Confidence in Economic Development." Journal of Economic Studies, 58(2), 123-145. doi:10.1234/jes.2020.0123.

3. Brown, A. (2018). "Consumer Behavior and Its Impact on National Economies." Economic Analysis Review, 45(3), 98-112.

4. World Bank. (2021). Global Economic Prospects: The Role of Consumers in Economic Growth. World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects

MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOQLARINI DIVERSIFIKATSIYA JARAYONLARINI JADALLASHTIRISH

Published: 23.12.2024

Cite this article: Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna (2024). Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini diversifikatsiya jarayonlarini jadallashtirish. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320663

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna
, Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti
matyoqubova.d.o@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari ya`ni, qishloq xo`jaligi va sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya jarayonlarini jadallashtirishga doir tadqiqotlar olib borilib, natijada tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so`zlar. Milliy iqtisodiyot, diversifikatsiya, samaradorlik, iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish, innovatsion rivojlanish.

Kirish. Dunyo iqtisodiyoti keskin o‘zgarishlarga duch kelmoqda, bu esa milliy iqtisodiyotlarda barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardoshlikni kamaytirishni talab qiladi. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlanishda uning tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va shu orqali o‘z faoliyatini mustahkamlashni ta'minlashdir. Mamlakat iqtisodiyoti tarixan an'anaviy sohalarga, qishloq xo‘jaligi va xomashyo ishlab chiqarish sohasiga qaram bo‘lib kelgan. Diversifikatsiya jarayonlari xom-ashyo eksportiga chek qo`yib, qo`shilgan qiymatga ega mahsulotlarni yaratishni jadallashtiradi. Diversifikatsiya O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotini rivojlantirish va jahon bozorlaridagi o‘zgarishlarga chidamliligini oshirishda muhim vositadir.

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan iqtisodiy quvvatni oshirish va resurslarni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada 2019-2023 yillar sanoat, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida amalga oshirilgan diversifikatsiya jarayonlari tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar tahlili, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, nazariy tahlil, tizimli tahlil, xronologik, monografik usullardan samarali foydalanildi. Ma'lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Qo`mitasi, xalqaro moliya tashkilotlari ma`lumotlariga asoslanib tahlil natijalari amalga oshirilgan.

Tadqiqot masalalari va muhokamasi. Diversifikatsiyaning milliy iqtisodiyotni ta'minlashdagi ahamiyatini ko‘rsatish uchun bir nechta tarmoqlar misolida ko‘rib chiqish mumkin:

1. Qishloq xo‘jaligi tarmog`i O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotda muhim o‘rinni egallaydi. Ushbu tarmoqni diversifikatsiya qilish suv resurslaridan samarali foydalanish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, zamonaviy texnologiya va agroinnovatsiyalarni joriy qilish bilan bog‘liq. Shuningdek paxtachilikka qaramlikni kamaytirish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik sohalarini rivojlantirish orqali eksport salohiyatini oshirish mumkin. Bu borada O`zbekistonda bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Quyidagi 1-jadvalda qishloq xo`jaligi tarmog`ida keyingi 5 yilda yetishtirilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmi (mlrd. so`m) keltirilgan. Respublikda 2019 yil yetishtirilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari hajmi 224265,9 mlrd. so`mni tashkil qilgan bo`lsa, 2023 yilga kelib bu ko`rsatkich 426030,2 mlrd. so‘mga yetgan.

1-jadval


2019-2023 yillarda qishloq xo`jaligi tarmog`ida yetishtirilgan mahsulot va xizmatlarning hududlar kesimidagi hajmi (mlrd.so`m)[64]

№	Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023
1	O‘zbekiston Respublikasi bo`yicha jami	224265,9	261892,2	317027,6	362898	426030,2

[64] stat.uz ma`lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	87 69,3	1 0532,2	1 2340,9	1 4374	1 6390,8
3	Andijon viloyati	24 314,9	2 7056,8	3 1582,5	3 7246,9	4 2942,4
4	Buxoro viloyati	19 436,2	2 4367,5	2 9170,4	3 3653	3 7921,8
5	Jizzax viloyati	14 105,9	1 6908,8	2 1202,8	2 4203,6	2 7860,9
6	Qashqadaryo viloyati	20 415,1	2 4510,2	2 9232,8	3 3549,2	3 9924,2
7	Navoiy viloyati	99 34,2	1 1908,1	1 5224,9	1 6442	1 9906,8
8	Namangan viloyati	16 832,2	1 9827,9	2 3654,5	2 7640,8	3 2868
9	Samarqand viloyati	29 294,7	3 3759,4	4 0329,6	4 2088,9	5 1023,3
10	Surxondaryo viloyati	18 152	1 9874,5	2 3881,8	2 7427,5	3 3646,6
11	Sirdaryo viloyati	79 84,8	8 709,5	1 0485,2	1 2606,9	1 4519,5
12	Toshkent viloyati	21 632,7	2 5410,5	3 1371,1	3 5354,9	4 1665,1
13	Farg‘ona viloyati	18 946,3	2 2069,1	2 8223,2	3 3723,6	3 9545,9
14	Xorazm viloyati	14 447,6	1 6957,7	2 0327,9	2 4586,7	2 7814,9
15	Toshkent shahri	0	0	0	0	0

2019-2023 yillarda qishloq xo`jaligi tarmog`ida yetishtirilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmini viloyatlar kesimida tahlil qilganda eng yuqori ko`rsatkich Samarqand viloyatiga to`g`ri kelib 2019 yilda 29294,7 mlrd.so`m, 2020 yilda 33759,4 mlrd. so`m, 2021 yilda 40329,6 mlrd. so`m, 2022 yilda 42088,9 mlrd. so`m va 2023 yilda 51023,3 mlrd. so`mlik mahsulot va xizmatlar yaratilgan bo`lib, keying besh yil davomida respublikada oldingi o`rinni egallagan. Eng kam ulush Sirdaryo viloyatiga to`g`ri kelganligini ko`rishimiz mumkin. Viloyatda 2019 yilda 7984,8 mlrd.so`m, 2020 yilda 8709,5 mlrd. so`m, 2021 yilda 10485,2 mlrd. so`m, 2022 yilda 12606,9 mlrd. so`m va 2023 yilda 14519,9 mlrd. so`mlik mahsulot va xizmatlar yaratilgan.




1-rasm. 2019-2023-yillarda respublikada yetishtirilgan qishloq xo`jaligi mahsulot va xizmatlari hajmining o`sish dinamikasi (mlrd.so`m)

Yuqoridagi 1-rasmda respublikada 2019-2023 yillarda yetishtirilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari va xizmatlari hajmining yillar davomida o`sib borishini ko`rish mumkin. 2019 yil 224265,9 mlrd.so`m, 2023 yilga kelib bu ko`rsatkich 426030,2 mlrd.so`mga yetgan.


2. Sanoat tarmog`i milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda drayver sohalardan hisoblanadi. Davlat sanoat siyosatini amalga oshirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish, asosiy turdagi mahsulotlar, xomashyo va materiallarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish moddiy balanslarini shakllantirishda ishtirok etish, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish, maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat zonalari faoliyatini rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirishga katta e`tibor bermoqda. Shuningdek, tegishli vazirliklar orqali sanoatning asosiy yo‘nalishlari, shu jumladan kimyo, mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, to‘qimachilik, ipakchilik, charm-poyabzal, zargarlik, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida, qurilish materiallari, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va realizatsiya qilish sohasida davlat sanoat siyosatini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohalarga xalqaro standartlarni joriy qilish ishlarini muvofiqlashtirish, ishlab chiqarish faoliyati turlarini litsenziyalashni amalga oshirmoqda.

Quyidagi rasmda O`zbekistonda faoliyat yuritayotgan jami sanoat korxonalari sonining 2020-2024-yillardagi o`zgarish dinamikasi keltirilgan (1-rasm).




1-rasm. O`zbekistonda faoliyat yuritayotgan jami sanoat korxonalari soni[65]

Bugungi kunda respublikada 69,4 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 11,8 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 17,0 foizi) Toshkent shahriga, 7,8 mingtasi (11,2 foiz) Farg‘ona viloyatiga, 7,3 mingtasi (10,5 foiz) Toshkent viloyatiga, 6,2 mingtasi (8,9 foiz) Samarqand viloyatiga va 5,5 mingtasi (7,9 foiz) Andijon viloyatiga to‘gri kelmoqda.



2-rasm. 2019-2023-yillarda respublikada sanoat ishlab chiqarishining hajmi (trln.so`m)[66]

Yuqoridagi 2-rasmda 2019-2023-yillarda respublikadagi sanoat ishlab chiqarishining hajmi keltirilgan. Ko`rsatkichlar dinamikasining yillar davomida o`sib borganligini ko`rishimiz mumkin.



3-rasm. Ishlab chiqaradigan sanoat hajmi (trln.so`m)[67]

[65] stat.uz ma`lumoti
[66] stat.uz ma`lumoti
[67] stat.uz ma`lumoti

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to‘liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. 2024- yil 1-yanvar holatiga ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 553,3 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 84,4 foizni tashkil etdi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi. Qishloq xo‘jaligi tarmog`i diversifikatsiyasi mahsulotlar ishlab chiqarishni xilma-xilligini oshirish, dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘shilgan qiymat yaratishining zamonaviy zanjirlariga samarali integratsiyalashi va ularning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy rivojlanish nafaqat yalpi ichki mahsulotning real o‘sishi bilan bog‘liq balki, u jamiyatning boshqa muhim jihatlariga, masalan, mintaqalararo tengsizlik, innovatsiyalar va yuqori salohiyatli kadrlarga ham bog`liq. Sanoat diversifikatsiyasi qashshoqlikni kamaytirish, texnologik innovatsiyalar, salohiyatli kadrlarning imkoniyatlarini kengaytirish, kapital ta'minoti va tadbirkorlik bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-noyabrdagi “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi ishtirokida “Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4021-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyundagi “Jahon banki ishtirokida O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish loyihasini amalga oshirishda qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3790-sonli qarori.

1. A.Nasriddinov “O‘zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi”, Toshkent, Fan va Texnologiya, 2021.

2. F.Rasulov “Barqaror, sanoat va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish” Toshkent, Yangi Iqtisodiyot, 2022.

3. Jahon banki hisobotlari va statistik ko‘rsatkichlari, O‘zbekiston bo‘yicha ma'lumotlar, 2023.

4. https://stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Qo`mitasi rasmiy sayti

5. https://www.worldbank.org - Jahon banki rasmiy sayti

HUDUDIY PAXTA-TO‘QIMACHILIK SEKTORIDA INTEGRASION TUZILMALARNI TAKOMILLASHTIRISH

Shamsiyeva Mohigul Olimjon qizi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik sektori mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘idir. Ushbu soha nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, balki ularni qayta ishlash va eksport qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Biroq, global raqobatning kuchayishi, bozor talablarining o‘zgarishi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi paxta-to‘qimachilik sektorida yangilanish va takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

Hududiy integratsion tuzilmalar, ya’ni klasterlar, bu jarayonni tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish, resurslardan